



O'ZBEK BOLALAR NASRIDA AVTOBIOGRAFIK JANR AN'ANASI: TIL, USLUB VA BADIY TALQIN

Boboxonova Feruzaxon Muhiddinovna,

*Buxoro davlat universiteti O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida o'qituvchisi,
feruza2311@gmail.com (+998972803606)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek bolalar adabiyotida avtobiografik qissa janrining o'rni, badiiy-estetik takomili rus adabiyoti (M.Gorkiy, L.Tolstoy) hamda o'zbek adiblari (G'.G'ulom, Oybek, A.Qahhor, H.Nazir) Erkin Malikning "Bolalik va o'smirlik ko'chalari" hamda "Yaxshi odamlar ko'p" nomli avtobiografik qissalarning uslubiy strukturalari ko'rsatilib, qiyosiy-tipologik tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: avtobiografik qissa, biografik metod, Erkin Malik, L.Tolstoy an'anasi, ruhiy zarba, o'gay ona motivi, bolalik olami.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль жанра автобиографического рассказа в современной узбекской детской литературе, художественно-эстетическое совершенствование русской литературы (М.Горького, Л.Толстой) и узбекские писатели (Г.Гулам, Ойбек, А.Каххор, Х.Назир) Показана и сравнительно-типологически проанализирована стилистическая структура автобиографических рассказов Эркина Малика "улицы детства и юности" и "много хороших людей".

Ключевые слова: автобиографический рассказ, биографический метод, Эркин Малик, Л.Толстовская традиция, душевный удар, мотив мачехи, мир детства.

Annotation. In this article, the role of the autobiographical narrative genre in modern Uzbek children's literature, the artistic and aesthetic evolution of Russian literature (M.Gorky, L.Tolstoy and b.) as well as uzbek writers (G.Gulam, Oybek, A.Kahhor, H.Nazir) The methodological structure of free Malik's autobiographical short stories "streets of childhood and adolescence" and "there are many good people" were shown and analyzed in comparative-typological terms.

Keywords: autobiographical short story, biographical method, free Malik, L.Tolstoy tradition, spiritual shock, stepmother motif, world of childhood.

KIRISH. Jahon va o'zbek adabiyotida yozuvchilarning o'z zamondoshlari, tarixiy shaxslar, mutafakkirlar haqida bitilgan xotira, esse va badialar, avtobiografik va biografik qissa, romanlar talaygina. Xususan, rus adabiyotida ulug' adiblarning o'z bolaligi haqidagi avtobiografik qissalar XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asr boshlaridayoq alohida janr sifatida vujudga kelganligi ta'kidlanadi. S.T.Aksakov, L.N.Tolstoy, A.M.Gorkiy, I.A.Bunin, A.N.Tolstoy, A.Gaydar, K.Chukovskiy, S.Marshak, V.Katayev, V.Rasputin, V.Astafey, kabilarning "bolalik"lari, eng avvalo, o'z xalqlarining, so'ngra sobiq sho'ro davri xalqlar adabiyotida ham ommalashib, bu turkumdagi asarlar yaratilishiga zamin hozirlagan edi.



Bu yo‘nalishdagi asarlarda mualliflar nafaqat o‘z hayoti, oilasi, do‘stlari yoxud shaxsiy kechinmalari, balki o‘zlari yashagan davrning muhim tarixiy voqealari, jamiyatdagi turli munosabatlar, shuningdek, bolalikdagi shirin hamda achchiq xotiralar, ko‘proq esa iztirob va ruhiy zarbalar (psixologik travma) haqida hikoya qilingan. Masalan, Maksim Gorkiyning “Bolalik” qissasi otasining o‘limi voqeasi bilan boshlanadi. Muallif o‘z bolaligiga nazar tashlaganda, butun rus hayotining, oddiy, qashshoqlikda kun kechiradigan mujiklarning, ozgina meros uchun aka-ukalar (tog‘alari Mixalko va Yakov misolida) va ota-bolalar (bobosi Vasiliy Kashirin va umuman, Kashirinlar xonadoni misolida) yoqavayron, ur-sur, qon to‘kish, yoqa yirtish darajasiga borib yetganini ochiq-oydin tasvirlaydi.^[5]

MATERIAL VA METODLAR. Darhaqiqat, bo‘ljak adiblar, iste’dod sohiblarining olis bolalik xotiralari ham barcha hodisalarni tiniq ko‘zgudek o‘zida aks ettiradi. Inson umrining ilk pallasi hisoblangan bolalik olamini har kim ham mohir rassomdek tasvirlay olmaydi, albatta. O‘sha chog‘dagi noyob xotiragina har bir detalni o‘zida muhrlab qoladi. Avtobiografik asarlar yozishda bu juda qo‘l keladi. Shu ma’noda Maksim Gorkiy ham o‘zi yashagan muhitdagi har bir hodisani teran aks ettiradi. Jumladan, kattalarning unga bo‘lgan adolatsiz munosabati, so‘kish va haqoratlar eshitishi, kaltaklanishi tufayli paydo bo‘lgan nafrat asarning deyarli barcha sahifalarida sezilib turadi. Oila a‘zolarining o‘zaro janjallari, ularning hayot qiyinchiliklari tufayli bir-biri bilan jiqqa musht bo‘lishi kabilar ham asar qahramonining murg‘ak qalbini darz etgan achchiq xotiralar, jarohatlar tarzida aks etadi. Shuningdek, avtobiografik asar o‘tgan asr boshlaridagi rus xalqi boshiga tushgan qiyinchiliklar, qashshoqlik hukm surgan bir sharoitda bolalarning tang ahvoli, jamiyatning ularga loqayd munosabati kabilar haqida yaxlit tasavvur beradi.

L.N.Tolstoyning “Bolalik” va “O‘smirlik” deb nomlangan avtobiografik qissalari esa bir oila, sulola bolalarining qismati haqida hikoya qiladi. Yozuvchi boy, zodagon oila farzandi bo‘lishiga qaramay, bolalikdagi alamli iztiroblar uni ham chetlab o‘tmaganiga guvoh bo‘lish mumkin. Garchi, ro‘zg‘orlari farovon, qarollar, oshpazlaru otboqarlar, aravakashlar ularning xizmatlarida; nemis tili, musiqa, matematika, tarix muallimlari ham alohida-alohida kelib uylarida bolalarga ta‘lim berib, xursandchilik, ziyofatu mehmondorchilikka imkoniyatlari yetsa ham bolalarning o‘z olamidagi murakkab kechinmalari ta’sirli bayon qilingan. Ayniqsa, asar qahramoni Nikolenka (muallifning o‘zi) – bolalikdanoq hamma narsaga e’tiborli bo‘lib, o‘qituvchilarning qo‘pol munosabati, otasining qattiqqo‘lligi, akasi va opasi, singlisi bilan, yoxud ularnikiga mehmon bo‘lib kelgan tengdosh bolalar bilan munosabatidagi noxushliklarni, o‘zini hamisha xunuk his qilib, hamma uni yomon ko‘rgandek tuyulishi g‘oyat ta’sirli lavhalarda aks etadi. Xususan, otasining qimor o‘ynab, ko‘p pullarni sovurishi, o‘z tug‘ilib o‘sgan so‘lim qishloqlaridan uzoq bo‘lgan Moskvaga ketishlari, onasining bevaqt vafotidan qattiq iztirob chekkani, buvisi hamda sevimli enagalari vafot etgandagi kuchli qo‘rquv iztiroblari, alamli xotiralar ham bola qalbini larzaga solgani hikoya qilingan.

⁵ Горький М. Болалик. – Т.: Ёш гвардия, 1981. – Б. 214.





TAJIRIBA. bolalar adabiyotida ham avtobiografik qissa yozish an'anasi o'tgan asrning 30-yillaridan boshlangan, deyish mumkin. G'ofur G'ulomning "Shum bola" asari qisman avtobiografik xarakterga ega.

A. Abrorov yozishicha, avtobiografik qissalar o'z uslubiga ko'ra ikki turli bo'ladi. Bir turdagi avtobiografik asarlarda yozuvchi o'z boshidan kechirgan voqea-hodisalarni, faktlarni boshqa badiiy obraz orqali tipiklashtiradi. Aniqrog'i, muallifning o'zi asarning markazida tursa ham, u boshqa nom bilan syujetda harakat qiladi.

Ikkinchi tur avtobiografik asarlarda muallif bosh qahramon sifatida o'z nomi bilan mustaqil personaj bo'lib qatnashadi. Avtorning o'z hayotida yuz bergan voqea va faktlar, o'zi ko'rgan yoki ishtirok etgan epizodlar asarning asosiy materiali bo'ladi.^[6]

"Shum bola" qissasida muallif qismatidagi yetimlik, bolalik do'stlari, mahallasi, bozor va rastalar tasviridagi aniqlik ana shu birinchi turga mansubligidan dalolatdir.

Oybekning "Bolalik" asari – "Xotiralarim"(1963), A.Qahhorning "O'tmishdan ertaklar"i – "Sarguzasht qissa"(1979), H.Nazirning "Oq fотиha yoki bolalik sarguzashtlarim" – "Xotira-qissa"(1995), X.To'xtaboyevning "Qaydasan bolaligim"(2013), A.Obidjonning "Ajinasi bor yo'llar"(2017) asarlari ham mohiyatan mualliflarning o'z bolalik xotiralarini asosidagi realistik hikoyalar, avtorning chinakam biografiyasiga daxldor.

Darhaqiqat, har qanday adabiy asarda avtobiografiklik unsurlari mavjud, chunki asar muallifning hayotiy tajribasi asosida dunyoga keladi: ijodkor hayotida yuz bergan ayrim voqealar, u guvoh bo'lgan holatlar, shular ta'sirida yuzaga kelgan o'y-kechinmalar matnga singib ketishi tabiiy. Avtobiografik xarakterdagi asarda biografik unsurlar salmoqli o'rin tutgani holda, badiiy to'qima hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.^[7]

Muallif hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan voqealar, ijodkor yashagan davr, u o'sgan muhit, oila a'zolari va do'stlarining realistik xarakteri kabilar avtobiografik qissalarning bosh xususiyati sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga yozuvchining badiiy niyatiga ko'ra bunday qissalarning uslubiy jilolarini o'ziga xoslik sifatida kuzatish mumkin. Oybek, A.Qahhor va Hakim Nazirning bolalik xotiralaridagi qahatchilik, og'ir turmush tarzi, har qadamda bolalarning jerkib berilishi, kattalar va bolalarning o'zaro salbiy munosabatlari tasvirida o'xshash lavhalar kuzatiladi.

Binobarin, Erkin Malik "Bolalik va o'smirlik ko'chalari"(2019), "Yaxshi odamlar ko'p"(2021) nomli avtobiografik qissalari bilan istiqloq davri o'zbek bolalar adabiyotida bu yo'nalishni yanada jonlanishiga katta hissa qo'shdi.

MUHOKAMA. "O'zbek adabiyotida, – deb yozadi professor Qozoqboy Yo'ldosh, – biografik va avtobiografik yo'nalishda bir qator asarlar yaratilayotgani xarakterli holdir. Alohida bir odam va uning hayot yo'liga qiziqishning ortgani millat ahlining shaxslashayotgani va ularda alohida odam taqdiri chinakam qiziqish uyg'onayotganidan

⁶Аброров А. Ўзбек прозасида автобиографик қиссалар: Ҳозирги ўзбек адабиётининг миллий ўзига хослиги. – Тошкент: Фан, 1984, – Б.110.

⁷ Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б.8.





belgidir. Shuningdek, biror adabiyotda biografik yo‘nalishdagi bitiklarning ko‘payishi o‘sha yerda odam shaxsiga e‘tibor orta boshlaganidan dalolatdir”.^[8]

Erkin Malikning avtobiografik qissalari ham shunday ijtimoiy ehtiyoj taqozosi deyish mumkin. “Yoshim bir joyga borganda shuni bildimki – deb yozadi muallif, – biz keksalar o‘z bolaligimiz xotiralarini o‘zimiz bilan olib keta olmas ekanmiz”.

Ota-onasi haqida so‘z yuritgan ijodkor ularning quloq qilinib Andijondan Yangiyo‘l taraflarga surgun qilingani va shu yerda oila qurishgani, urush yillarida esa Toshkentga kelib qolishganini hikoya qilgan. 1945-yilning qish kunlari otasi harbiy qurol ortilgan eshalonlarni zavoddan nari kuzatib borishi kerak bo‘lib qoladi. Ona qo‘shimcha issiq kiyimlarni olib, uyda qoldiradigan odam bo‘lmagach, 3-4 yoshlardagi Erkin bilan vokzalga chiqadi. Shu yerda falokat yuz beradi... To‘s-to‘polonda ona-bola otani topisha olmaydi. Ona ikkinchi farzandga homilador edi. Birdan dard tutib, o‘zidan ketadi. Onani jang maydonidan yaradorlarni olib kelgan “Sanitar” poezdiga olib chiqishadi. Bolaga esa hech kim e‘tibor qilmaydi. Shu tariqa, Erkin birpasda tirik yetim bo‘lib ko‘chada qolaveradi. Uning hayotida endi darbadarlik boshlanadi. Uni yaqin qarindoshlari tarbiyasiga oladi, turli eshiklarda dastyorlik qilish, mol boqish, dala bolalar bog‘chasida enagalarga qarashish kabi yumushlarni bajarish bilan kun kechira boshlaydi.^[9]

NATIJALAR. Ta’kidlash joizki, Erkin Malikning avtobiografik qissalari avvalo quyidagi jihatlari bilan o‘ziga xoslik kasb etadi:

1. O‘zbek adabiyotida bolalik va o‘smirlikka bag‘ishlangan alohida-alohida avtobiografik qissalari hali yaratilmagan edi. Erkin Malik bu borada L.N.Tolstoy an‘anasini o‘zbek bolalar adabiyotida davom ettirdi.

2. Oybek va A.Qahhor, H.Nazir bolaligi o‘tgan asrning 20-30-yillariga to‘g‘ri kelganligi bois, ularning avtobiografik asarlarida o‘sha davr tarixi hamda jamiyatning bolalikka munosabati aks etgan bo‘lsa, Erkin Malik ijodida katta-yu kichikka birdek qaqshatqich zarba va yo‘qotishlar olib kelgan ikkinchi jahon urushining barcha iztiroblari hamda undan keyingi 50-yillardagi taqdirlar hikoya qilinadi.

3. Yuqorida zikr etilgan barcha avtobiografik qissalarda asosan bolalik sho‘xliklari, ota-onalarining bag‘rida voyaga yetgan bosh qahramonlarning ular haqidagi shirin xotiraları yodga olinadi; muammolar esa bolalar o‘rtasidagi ayrim kelishmovchiliklar, qorin to‘yib ovqatlanmaslik, yoxud o‘qish va bilim olishga e‘tiborning pastligi bilan cheklanadi. Mualliflar o‘z yaqinlari, bobo buvilari, ota-onalarining turmush tashvishlarini ba‘zan o‘kinch bilan qayd etadilar. Erkin Malikning bolalik va o‘smirlik haqidagi qissalari esa boshdan oyoq yetimlikning achchiq qismati, ruhiy iztiroblari bilan sug‘orilgan.

4. Erkin Malikning avtobiografik qissalarida qahramon nomi deyarli ishlatilmaydi, “Men” tilidan hikoya qilinadi, o‘gay onasi doim yetimcha – yetti kulcha, go‘rso‘xta, yer yutgur, deb ataydi. Unga rahmi kelgan, qornini to‘yg‘izgan yaxshi insonlar esa “toy bola”,

⁸ Қозоқбой Йўлдош. Ўзлик сари йўл. Ўзбекистон халқ шоири Анвар Обиджон таваллудига 70 йил. – Тошкент, 2017. – Б. 10.

⁹ Эркин Малик. Мухбирликнинг олис йўллари. // Тонг юлдузи. 2009 йил. 17-сон.



“mirzo bolam”, deb murojaat qilishadi. U ham “Shum bola” ning qahramoniga o‘xshab “sarguzasht” larni boshidan kechiradi, ammo bu badiiy to‘qima emas, yetimlik qismati tufayli turli guzar va mahallalarda, qarindosh va begonalar uyida yashashga majbur bo‘ladi.

5. M.Gorkiy va L.N.Tolstoy, Oybek va A.Qahhorlar asosan umumadabiyot vakili, kattalar uchun asar yozadigan adib sifatida ma‘lum va mashhur. Shu sababli ularning avtobiografik qissalarida voqelikka bola nigohi bilan qarash, uning nuqtai nazari bilan yondashish, bolalarcha munosabat ustunlik qilmaydi. Erkin Malik esa butun umrini bolalik olami talqiniga baxshida etgan, ular uchun ijod qilib kelayotgan jurnalist va publitsist, adib sifatida bolalarbop ravon uslubga ega, asarlarida ma‘rifiylik hamda optimizm yetakchi. Ustoz yozuvchilarning o‘z bolaliklari yoxud buyuk shaxslar, ulug‘ mutafakkirlar, iste‘dodli shoirlar, yozuvchilar siymosiga bag‘ishlangan qissalari bolalar adabiyoti orqali yosh kitobxonlarning badiiy-estetik saviyasi va tafakkuri, ong va idrokining rivojlanishiga muhim ta‘sir ko‘rsata oladi. Biografik metod haqida fikr yuritgan B.Karim yozuvchi va badiiy asar juftligi haqida to‘xtalib, ijodkorning shaxsiy hayoti, yashagan muhiti, ruhiy-psixologik holati, shaxsiy qiziqishlari, asarning yozilishiga turtki bo‘lgan omillarga e‘tibor berish zarurligini qayd etadi.[¹⁰]

Ta‘bir joiz bo‘lsa bu jihat aynan avtobiografik asarlarda yaqqol kuzatiladi. Har bir ijodkorning bolalik va o‘smirlik kechinmalari asarlari mazmuniga qisman singib ketadi, albatta. Avtobiografik asar yozadigan adiblar esa bolalikdanoq atrof-olamga zehn qo‘yib kuzatadigan, har bir voqening mayda tafsilotlarigacha aql va tafakkur bilan tahlil qila oladigan, so‘ngra ularni bir umrga esda saqlay bilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Yana bir muhim jihat bolalikdagi achchiq armonlar, go‘dak qalbini chilparchin qiladigan alamli xotiralari iskanjasi, turmush tarzining keskinligi shunday qissalarning yozilishiga turtki bo‘ladi. Binobarin, Erkin Malikning avtobiografik qissalari shu jihatlari bilan alohidalik kasb etadi. Asarning birinchi kitobida T.Malikning quyidagi fikri epigraf qilib olingan: “Baxtsizlik meni yuksaltirdi. Baxtsizlik ichida baxtni topdim. Shunday ekan, haqiqiy baxtni his qilishga sababchi bo‘lgan baxtsizlik aslida baxtdir”. [¹¹] Bu bejiz emasligini kitobxon qissa davomida anglab boradi. Kitobdan joy olgan mustaqil syujetli hikoyalarning har birida ana shu baxtsizliklarning yuki biri-biridan og‘irlik qiladi.

Qissaning yaxlit mazmunida bosh qahramon – roviyning kichkina go‘daklik chog‘ida urush sababli ham onasidan, ham otasidan birdaniga ajralib, vokzalda, odamlarning oyog‘i ostida ezilib, tabib ena aytmoqchi, qovurg‘ayu jigarlari yanchilib, bir qop go‘shdan farqi qolmagan kundan boshlanadi. Roviylar hikoyani o‘gay ona qo‘lidagi achchiq qismatdan boshlasa ham, elas-elas xotirasida qolgan, vokzalga birga borib, yo‘qotib qo‘ygan onajonini topish umidi bilan voyaga yetadi.

XULOSA. Balki bu hayot haqiqatining badiiy haqiqatga aylanishidagi to‘qimadir. Chunki, o‘sha ikkiqat oyijonisi vokzalda yo‘qolib qolganicha, boshqa daragi topilmaydi.

¹⁰ Karim Bahodir. Ruhiyat alifbosi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot va matbaa ijodiy uyi, 2016. – B. 166.

¹¹Эркин Малик. Болалик ва ўсмирлик кўчалари. – Тошкент: 2019. – Б. 4.



Butun asar davomida qahramon oyisini izlaydi. Ammo oyisining keyinchalik uni izlagani biror lavhada berilmaydi. Faqat ikkinchi kitobning o'rtalaridan uni o'sha vokzalga kelgan sanitar poezdiga olib chiqib, doyalik qilgan rus hamshirasi, qizaloq tug'ilib ismi Natasha qo'yilganidan o'smirlik yillarida Tuzchi xoladan xabar topadi. Asar oxiridagina bolasini vokzalda yo'qotib qoldirgan mushtipar ona iztiroblari uning eri Eshon doda tomonidan qisman hikoya qilinadi. Baribir allaqachon voyaga yetgan o'spirin yigit yoshida asar qahramoni oyisini tanib, bag'riga singib ketishi, kitobxonga xush kayfiyat bag'ishlaydi.

Erkin Malikning "Bolalik va o'smirlik ko'chalari" hamda "Yaxshi odamlar ko'p" avtobiografik qissalari o'zbek bolalar nasrida avtobiografizm, biografik metod va shaxsiy konstitutsiyalarni yangi bosqichga ko'targan muhim ilmiy-badiiy hodisadir. Adib o'z bolaligi va o'smirligi timsolida urush hamda urushdan keyingi davr bolalarning ijtimoiy-ruhiy manzaralarini, yetimlik iztiroblarini hamda insoniy metonatni teran tasvirlagan.

Yuqoridagi qissalar yosh kitobxonlarning badiiy-estetik saviyasini va tafakkurini boyitish bilan birga, zamonaviy adabiyotshunoslikda biografik metodik tahlil etishni keng qamrovli tadqiqot uchun boy ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. **Abrorov A.** O'zbek prozasida avtobiografik qissalar: Hozirgi o'zbek adabiyotining milliy o'ziga xosligi. – Toshkent: Fan, 1984. – B. 110.
2. **Erkin Malik.** Bolalik va o'smirlik ko'chalari. – Toshkent, 2019. – B. 4–182.
3. **Erkin Malik.** Muxbirlikning olis yo'llari // Tong yulduzi. – 2009 yil. – 17 yoshda.
4. **Erkin Malik.** Yaxshi odamlar ko'p. – Toshkent, 2021. – B. 5–120.
5. **Gorkiy M.** Bolalik. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1981. – B. 214.
6. **Karim B.** Ruhiyat alifbosi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. – B. 166.
7. **Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M.** Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 8.
8. **Yo'ldosh Q.** O'zlik sari yo'l (O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon tavalludiga 70 yil). – Toshkent, 2017. – B. 10.

